

SURXON VOHASIDA SUVDA O'YNALADIGAN O'YINLARNING TAHLILI

Botir Normuratov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy xalq o'yinlarining suvda o'ynaladigan turlari – “Suvda quvlashmachoq”, “Oq tosh”, “Tez suzish”, “Suv ostida suzish”, “Qaymoq” (“Tosh sakratar”), “Suv ostida turish” kabilarning o'ynalish joyi, kimlar tomonidan o'ynalishi va o'yin qoidalari haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: o'yin, milliy xalq o'yinlari, bolalar o'yinlari, suvda o'ynaladigan o'yinlar, suzish, etnografiya, etnik guruhlar.

Xalq o'yinlari millat tarixi, madaniyati, bosib o'tgan yo'li, udum-an'analari kabilarni o'zida aks ettirgan qimmatli nomoddiyboyliklar sirasiga kiradi. Xalq o'yinlari o'zining paydo bo'lishi va rivojlanishiga ko'ra g'ayrioddiy hodisa emas, balki xalqning hayotini obrazli tarzda aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyoti qonunlariga hamohang belgilanadigan faoliyatdir.

O'yin xalq madaniyatining eng qadimgi va keng tarqalgan sohalaridan biri hisoblanadi. U hamma davrlarda ham bolalarni halollik, poklik, mehr-shafqat, rostgo'ylik va to'g'rilik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabu eng mo'tabar yuksak fazilatlarni tarbiyalashda, katta ahamiyat kasb etib kelgan. bundan tashqari o'yinlar bolaning jismonan sog'lom, baquvvat bo'lib o'sishini ham ta'minlaydi.

O'yinlarning soni, turi judayam ko'p. O'ynovchilar yoshi, jinsi, o'ynash davri, makoni, o'yin vositalari kabi asoslar bo'yicha bir qancha tasniflarga ajratish imkoniyati mavjud. Aksariyat holatlarda o'yinlarni bolalar o'ynashiga guvoh bo'lish mumkin, ammo xalq o'yinlari orasida kattalar uchun ham o'yinlar mavjud.

Xalq o'yinlari etnik jihatdan mamlakatimizning turli joylarida turlicha o'ynaladi. Shuningdek, ma'lum hududning, u hududda yashovchi etnik guruhlarining o'yinlari boshqa hududlarnikidan farqli bo'lishi yoki bir hududda mavjud bo'lgan o'yin boshqa hududda bo'lmasligi mumkin. Buning sababi o'sha geografik hududning tabiati, landshafti, aholisining asosiy mashg'ulotidagi farqlar. Chunki xalq o'yinlari xalqning asosiy mashg'ulotlari negizida dunyoga kelgan. “Xalq o'yinlari tasodifan paydo bo'lgan emas, qadimiy ajdodlarimiz ularni shu darajaga olib kelgunlaricha og'ir, mashaqqatli yo'lni bosib o'tganlar.

Har bir davrda o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan barkamol qilib tarbiyalash tabiiy va ijtimoiy zaruriyat edi. Demak, ajdodlarimizning ovchiligi asosida “ovchilik o'yinlari”, chorvachilik asosida “ho'kiz, ot, ayiq, bo'ri, tulki va boshqalar o'yinlari”, dehqonchilik asosida - “mehnat o'yinlari” shakllandi¹⁸.

¹⁸ Aripov Z. Xalq o'yinlarining etnopedagogik tasnifi // “Yangi O'zbekistonning umidli yoshlari” 1(2)-son 2022-yil, 28-mart. 27-b.

Aholining yashash hududi tabiati ham xalq o'yinlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Masalan, tog' va adirlik hududlarning o'ziga xos, cho'l hududlarining o'ziga xos o'yinlari mavjud.

Bugungi kunda mavjud sport o'yinlarining asosi ham xalq o'yinlaridan o'sib chiqqanligiga dalillar yetarlicha, barcha sport o'yinlarining poydevori milliy xalq o'yinlari desak zarracha mubolag'a bo'lmaydi. Kurash, ko'pkari singari o'yinlar bugun sport turi sifatida jahonda tan olindi.

Azaldan daryo bo'ylarida yashagan xalqlar hayotida suvning, u bilan bog'liq udum an'analarining o'rni bor. Bu xalqlarning kundalik hayotida baliqchilikning o'z o'rniga ega ekanligi, mifologiyasida ham suv bilan bog'liq miflar talaygina bo'lishi tabiiy holat. Ko'l va daryo bo'ylarida, suv havzalariga yaqin yashagan aholining o'yinlari ichida suvda o'ynaladigan o'yinlarning salmog'i ham yuqori. Quyida shunday o'yinlardan ayrimlari haqida kuzatishlarimiz va mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Suvda o'ynaladigan o'yinlarning bir qancha turlari bor. Shulardan eng keng tarqalganlari "Suvda quvlashmachoq", "Oq tosh", "Tez suzish", "Suv ostida suzish", "Qaymoq" ("Tosh sakratar"), "Suv ostida turish" kabilardir. Suv sportining inson organizmi, ayniqsa yosh bolalar va o'smirlar tanasi, sog'ligi uchun qanchalar foyda ekanligini eshitmagan kishi bo'lmasa kerak. Shu naqta nazardan olib qaraganda bu o'yinlarning foydalari juda ko'p, bu o'yinlar vaqtni maroqli o'tkazish bilan bir qatorda, asosan, jismoniy sog'lomlikning garovi hisoblanadi.

"Suvda quvlashmachoq" o'yinida bolalar soni qancha ko'p bo'lsa, o'yin shunchalik qiziqarli bo'ladi. Qatnashchilar aylana bo'lib turishadi va sanamachiq jo'raboshi tomonidan aytiladi, galma-gal ishtirokchilar chiqib ketadilar. Eng oxirida qolgan kishi hammani quvadi. Quvish suvda amalga oshiriladi, suvdan tashqarida tegish, ushlash hisobga olinmaydi, o'yinning asosiy shartlaridan yana biri quvayotgan ishtirokchi ham, qochayotgan ham suvda suzishi lozim, yugurish hisobga olinmaydi. Bunday holat quvuvchi tomonidan ro'y bersa, o'yin qayta boshlanadi, ushlangan ishtirokchilar ham qayta o'yinga kiradilar. Agar qochayotgan ishtirokchi qoidani buzsa, quvish navbati unga o'tadi.

Zamonaviy suzish sportida bo'lgani kabi "Tez suzish" o'yini ham poyga tarzida o'tkaziladi. Ishtirokchilar bir chiziqda turib ishoradan so'ng bir vaqtda suzishga kirishadilar, oldindan belgilangan marraga birinchi bo'lib yetib borgan bola g'olib deb topiladi. Ayrim holatlarda suzishda mohirligi bilan tengdoshlari orasida tanilgan yoki o'ziga qattiq ishongan ishtirokchi o'z xohishi bilan boshqalarga nisbatan orqaroqdan boshlashi ham kuzatilishi mumkin.

"Suv ostida suzish" ham xuddi "Tez suzish" o'yiniga o'xshab ketadi. Bunda avvaldan belgilangan boshlash nuqtasi (start chizig'i) belgilanadi, ishtirokchilar galma-galdan boshlashadi, nafasi va quvvati tugab suvdan chiqqan joylarida qoladilar, keyingi ishtirokchi navbatda suzadi, u ham xuddi shunday imkoni boricha suzadi va suvdan chiqqan joyida qoladi, barcha ishtirokchilar suzib bo'lgach turgan joylaridan kim ko'p masofaga suzganligi aniqlanadi.

“Oq tosh” o‘yini ham suv havzalari bo‘ylarida yashovchi aholi farzandlarining sevimli o‘yinlaridan hisoblanadi. O‘yin judayam qiziqarli hisoblanadi. O‘yinni 3 tadan 8-10 tagacha bola o‘ynashi mumkin. O‘yinning ikki xil varianti bor. Birinchi variantida ishtirokchilar suv ichida turib bir chiziqqa tizilishadi. Hamma o‘yinlarda bo‘lganidek bolalar ichida eng mohir va epchili jo‘raboshi (bek) deb saylanaladi. Avvaldan topib qo‘yilgan oppoq tosh jo‘raboshi tomonidan 20-30 metrlar uzoqqa suv ichiga, iloji bo‘lsa chuqurroq joyga otiladi. Toshning suvga tushishi ishtirokchilar uchun start signali bo‘lib xizmat qiladi. Ya‘ni suvga tosh tushishi bilan barcha bolalar oq toshning tushgan joyini chamalab tezlikda oldinga intiladilar. Suv tagidan oq toshni birinchi bo‘lib topgan bola g‘olib hisoblanadi.

Bu o‘yinining ikkinchi variantini bizga Boysun tumani O‘rta Machay qishlog‘ida shu o‘yinni o‘ynab katta bo‘lgan Bahodir To‘raliyev aytib bergan. “Bu o‘yinda kelishuv asosida bir kishi o‘z ixtiyori bilan navbatni boshlab beradi, uning ishi daryoning o‘zaro kelishuv asosida oldindan belgilangan qismiga (masalan, biri biridan 20-30 metr uzoqlikdagi 2 ta daraxt yoki xarsang oralig‘idagi masofa bo‘lishi mumkin) oq toshni yashirishdan iborat. Bu paytda qolgan ishtirokchilar uning har bir harakatini diqqat kuzatib turishadi. Yashiruvchi ishtirokchi esa ayyorligini ishga solib, toshni suv tagida biror joyga bildirmay yashirishga harakat qiladi. Yashirib bo‘lgach suvdan chiqadi va bolalar toshni izlashga kirishadilar. Toshni topgan ishtirokchi o‘yin g‘olibi hisoblanadi.

Yana bir foydali va qiziq o‘yinlardan biri “Suv ostida turish” o‘yini hisoblanadi. O‘yin shartlari murakkab emas, odiiy. Bir necha ishtirokchi o‘pkasining havos sig‘imi va bardoshini sinash uchun suv tagiga baravar sho‘ng‘iydilar. Boshlarini chiqarmaydilar, ayrim bolalar bu suvostiga tushish jarayonida qo‘llari bilan burun va quloqlarini yopib oladilar. Bolalardan biri yoki bir nechta o‘yinda hakam vazifasini bajarishi mumkin. Aksincha holatda hakam bo‘lmazligi, bolalar vijdon bilan o‘zlari hakamsiz o‘ynashi ham mumkin. Bunday holatda o‘ynalganda ishtirokchilar biri-biriga qarab, aylana shaklida turib olishadi. Va suvga birga sho‘ng‘iydilar, ayrim bolalar sheriklari g‘irrom qilmasligini kuzatish uchun ko‘zlarini ochib suv ostida qarab turish holatlari ham uchraydi. Ushbu o‘yinlar bolalarda jismoniy chidamlilik, baquvvatlik, sog‘lomlik sifatlarini shakllantiradi.

Suv bilan bog‘liq o‘yin turlaridan yana biri “Qaymoq” yoki “Tosh sakratar” o‘yini. Qaysi hududda o‘ynalishiga qarab o‘yin shu nomlardan biri bilan ataladi.

O‘yin turlari bilan bog‘liq adabiyotlarda suv bilan bog‘liq o‘yinlar ikkiga bo‘lingan, birinchisi sho‘ng‘ish, suzish bilan amalga oshiriladigan o‘yinlar. Ikkinchisi esa ermak, ko‘ngil ochish ma‘nosidagi o‘yinlar¹⁹. Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan “Qaymoq” o‘yini shu ikkinchi tur o‘yinlari sirasiga kiradi. O‘yinda toshning suvga necha marta tegib sakrab “qaymoq” hosil qilishini e‘tiborga olinadi va kim ko‘p “qaymoq” hosil qilsa, o‘sha g‘olib sanaladi.

Suvda o‘ynaladigan o‘yinlar yuqorida aytib o‘tganimizdek suv havzalariga yaqin joyda yashaydigan aholi orasida keng tarqalgan, cho‘l mintaqalarida daryolar tiniq suv havzalari bo‘lmagan hududlarda bu o‘yinlar yo‘q. U yerdagi aholi bunday o‘yinlarni bilishmaydi.

¹⁹ Usmanxodjayev T. S. va b. Milliy va harakatli o‘yinlar. Darslik. –Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2015. 27-bet.

Suvda o'ynaladigan o'yinlar yosh avlodni chaqqon, baquvvat, sog'lom qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Bu o'yinlarning etnografik planda tadqiq qilinishi fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aripov Z. Xalq o'yinlarining etnopedagogik tasnifi//“Yangi O'zbekistonning umidli yoshlari” 1(2)-son 2022-yil 28-mart. 78-b
2. Usmanxodjayev T.S. va b. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. –Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2015. 268 bet.
3. Safarov O. va b. O'zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori. “O'qituvchi” NMIU, –Toshkent: 2007. 136 b.
4. Sodirzoda, M. M. (2021). TO INCULCATE NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ETIQUETTE LESSONS. Conferencea, 31-32